IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: XE66961581

“VATANDOSHLAR”
JAMOAT FONDI

100113. Toshkent sh., Bobur kochasi, 45-uy
Tel.: (998 55) 502-22-99

“VATANDOSHLAR”
PUBLIC FOUNDATION

45, Bobur str., Tashkent, 100113
Tel.:(998 55) 502-22-99

01/07-681-son 8 dekabr 2025 yil.

SHOSHILICH!

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori Sh.A. Boymuradovga

Hurmatli Shuharat Abdujalilovich,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi PQ-5220-sonli qarorida xorijiy davlatlarda yashab kelayotgan olim va ijodkor vatandoshlarimizning yurtimiz nufuzini oshirishga qaratilgan ilmiy, ijodiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni O‘zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy ishlari bilan shug‘ullanishga faol jalb qilish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **AQSH**ning Kaliforniya universiteti professori, Fondning Tibbiyot sohasidagi **Ekspertlar kengashi a’zosi, tibbiyot fanlari doktori Sharof Tugizov** bilan **“Markaziy Osiyoda OITS bo‘yicha umumiy tendensiyalar: xalqaro hamkorlikdagi o‘zgarishlar va ularning ehtimoliy ta’siri”** mavzusida onlayn vebinar tashkil etish rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan, Sizdan mazkur Qarorda belgilangan vazifalarni Fond tomonidan ijrosini sifatli ta’minlash maqsadida **joriy yilning 11 dekabr Toshkent vaqti bilan soat 10:00 da** o‘tkaziladigan (ZOOM platformasida) onlayn vebinarga Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqotchilari va talabalarning ishtirokini ta’minlashda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

“Vatandoshlar” jamoat fondi Toshkent tibbiyot akademiyasiga ko‘rsatilayotgan hamkorlik va amaliy yordam uchun o‘z minnatdorligini bildiradi.

ZOOM platformasining identifikatori: 843 5273 7636
Parol: 810521

Boshqaruv raisi **O. Sattarov**

Ijrochi: X.Isakov
Tel: (97)-198-13-31